ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MO‘MINOVA SHOHIDA TOSHTEMIR QIZI

HOZIRGI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA BADIIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 821.512.133'06.09-93-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Mo‘minova Shohida Toshtemir qizi
Hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida badiiy obraz yaratish mahorati 3

Muminova Shohida Toshtemir qizi
The art of creating artistic images in contemporary Uzbek children’s poetry 25

Муминова Шохида Тоштемир кизи
Мастерство создания художественного образа в современной узбекской детской поэзии 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 52

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MO‘MINOVA SHOHIDA TOSHTEMIR QIZI

HOZIRGI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA BADIIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4981 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jo‘rayeva Gulnoza Axmatovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yoqubov Islomjon Axmedjanovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Jamilova Bashorat Sattorovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100. Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____da tarqatildi

(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. A. Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Sh. N. Amonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

U. H. Jo‘raqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida zamonaviy bolalar she’riyatining taraqqiyot tamoyillarini tadqiq etishda badiiy obraz yaratish masalasi markaziy o‘ringa chiqmoqda. Bugungi kunda bolalar uchun yaratilayotgan she’riy asarlarda obrazlilik shunchaki tashqi tasvir vositasi emas, balki bola dunyoqarashi va estetik tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida baholanmoqda. Zamonaviy bolalar she’riyatida badiiy obraz yaratishning yetakchi tamoyillari an’anaviy didaktikadan uzoqlashib, ko‘proq bola ruhiyatining ichki qatlamlarini badiiy kashf etishga, intellektual va emotsional obrazlar tizimini yaratishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Dunyo adabiy jarayonida, xususan, o‘zbek bolalar she’riyatida obraz yaratish mahorati yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Endilikda shoirlar ijodida obrazlar rang-barangligi faqatgina hayvonot olami yoki tabiat hodisalari tasviri bilan cheklanib qolmay, balki bola tafakkuridagi murakkab assotsiatsiyalar, vizual va mantiqiy bog‘lanishlar orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda lirik qahramon olamini yangicha talqin qilish, obrazli tafakkurni noziklashtirish va bolaning ruhiy dunyosiga mos keladigan badiiy qoliplarni izlab topish zamonaviy she’riyatning ustuvor tamoyillaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy islohotlar sharoitida yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi bolalar she’riyatida obraz yaratishning konseptual asoslari tubdan yangilanmoqda. Bugungi kunda o‘zbek bolalar shoirlari oldiga nafaqat o‘qituvchi-murabbiy, balki mahoratli psixolog va novator san’atkor sifatida badiiy obrazlar orqali bolaning ichki “men”ini ifodalash vazifasi qo‘yilmoqda. Shu bois, hozirgi bolalar she’riyatida obrazlilikning janriy-uslubiy xususiyatlarini, shoirlarning individual mahoratini hamda asarlardagi badiiy qahramon va bola ruhiyati mutanosibligini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazishimiz shart”[1].

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalar mazkur tadqiqotning me’yoriy-huquqiy asosini tashkil etadi. Ushbu dissertatsiya mazkur hujjatlarda nazarda tutilgan ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish va ta’lim mazmunini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinint Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr.

takomillashtirishga oid vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Bolalar adabiyotini, xususan, bolalar she'riyatini ilmiy o'rganish, zamondosh ijodkorlar asarlarini badiiy talqin etish mazkur tadqiqot ishining zarurati va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda bolalar va o'smirlar uchun ijod qiluvchi adiblar asarlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil va tanqid qilish an'anasi yaxshi shakllangan. 1973-yilda AQSHda "Bolalar adabiyoti assotsiatsiyasi" tuzilib, u hozirgi kungacha samarali faoliyat olib bormoqda[2]. Lekin undan ancha oldin ham bolalar uchun yaratilgan asarlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga oid bir qancha ishlar mavjud edi va ular soni tobora ortib bordi. Masalan, G.S. Hol[3], A.Adler[4], V.M. Friche[5], Z.A. Grisenko[6], I.Kon[7] singari olimlarning ishlarida bolalar adabiyotining rivoji, uning bola psixologiyasida, umumpedagogikada tutgan o'rni, bolalarni kitobsevarlikka o'rgatish zarurati haqida qimmatli fikrlar mavjud. O'zbek olimlaridan Q.Qahramonov[8], N.Qurbonova[9], A.Qosimov[10], R.Barakayev[11], B.Jamilova[12], N.Safarova[13], N.To'xtayeva[14], O.Abobakirova[15], D.Rajabov[16] kabilar o'zbek va jahon bolalar adabiyotini ilmiy tadqiqi borasida salmoqli izlanishlar olib borishgan. Lekin zamon talablaridan kelib chiqqan holda bugungi bolalar shoirlarining mahoratini, ular ijodidagi umumiylik va individuallikni, XXI asr bolalariga taqdim etilayotgan she'riy asarlarning

---

[2] Qarang: Assotsiyaning rasmiy sahifasi URL: https://www.childlitassn.org/ (murojaat sanasi: 05.10.2025)

[3] Hall G.S. The Contents of Children's Minds on Entering School. – New York and Chicago: E. L., Kellogg & co., 1893.

[4] Adler A. Superiority and Social Interest: A Collection of Later Writings. – Norton, 1979.

[5] Фриче В. Проблемы искусствоведения, сборник статей по вопросам социологии искусства и литературы. – Москва: ГИЗ, 1930.

[6] Гриценко З. А. Детская литература. Методика приобщения детей к чтению. – Москва: Academia, 2008.

[7] Кон И. Ребёнок и общество. Историко-этнографические перспективы. – Москва: Academia, 2003.

[8] Кахрамонов К. Роль литературной критики в развитии реалистических принципов в узбекской советской етской литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988.

[9] Qurbonova N. O'zbek bolalar marosim folklori: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1994.

[10] Qosimov A. Adabiyotda bolalik ma'naviyaxloqiy kategoriya sifatida (A. de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" va Ch.Aytmatovning "Oq kema" asarlari asosida): Filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – Toshkent, 1994.

[11] Barakayev R. XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1994.

[12] Jamilova B. O'zbek bolalar publitsistikasi va uning rivojlanish tamoyillari: Filol. fan. nomz… diss. – Toshkent, 2004.

[13] Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2005.

[14] To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD). … diss. – Toshkent, 2019.

[15] Abobakirova O. O'zbek bolalar hikoyachiligida badiiy uslub va qahramon masalasi (N.Fozilov, L. Mahmudov, A.Obidjon ijodi misolida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. avtoref. – Farg'ona, 2021.

[16] Rajabov D. 80-yillar o'zbek bolalar she'riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1995.

qimmatini adabiy jarayon kontekstida tahlil qilish va tadqiq qilish g‘oyat muhim. Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab she’rlarida o‘ziga xoslikni, bolalarning olamiga bu jajji she’riyat namunalari qanday ta’sir etishini, ular she’rlaridagi mavzular rang-barangligini, shoirlarning mahorat sirlarini, lirik qahramon yaratishdagi yondashuvlarini, shakliy-mazmuniy originalligini o‘rganish ham dolzarbdir. Ushbu mualliflar ijodi zamonaviy bolalar she’riyatidagi ikki etakchi tendensiyani, ya’ni folklor an’analariga tayangan holda obraz yaratish (K.Turdiyeva) hamda vizual-grafik va shakliy novatorlik (A.Akbar, D.Rajab) tamoyillarini o‘zaro qiyosiy tadqiq etish imkonini berganligi uchun obyekt sifatida tanlab olindi. Zotan, istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy qadriyatlarimizning tiklanishi va ularning o‘zbek bolalar she’riyatida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, ushbu davr bolalar she’riyatining ma’rifiy-tarbiyaviy xususiyatlari hamda, bugungi bolalar she’riyatining qahramoni kim bo‘lishi kerak? degan savollarga bolalar she’riyatimiz etakchi namoyandalari she’rlari tahlili vositasida javob topish zarur. Zero, bugungi kun bolalar adabiyotiga bo‘lgan e’tibor undagi yangilanish va o‘ziga xosliklarni tadqiq etishni kun tartibidagi dolzarb masalalar qatoriga qo‘ymoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida badiiy obraz yaratish mahorati muammosini tadqiq etish, shoirlarning obraz yaratishdagi o‘ziga xos konseptual yondashuvlari, badiiy mahorat qirralari va poetik yangilanish tamoyillarini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy o‘zbek bolalar she’riyatining mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi hamda bola obrazini yaratishdagi ijodiy mahoratni jahon adabiyoti kontekstida tahlil qilish;

bolalar shoirlari ijodida badiiy obrazlar rang-barangligi va badiiy mahorat qirralarini, an’anaviy hamda zamonaviy tasvir usullari uyg‘unligini aniqlash;

Kavsar Turdiyevaning folklor an’analariga asoslangan hamda Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajabning shaklan yangi (geometrik shakllar, rasmlar, raqamlar bilan boyitilgan) she’rlari misolida bolalar she’riyatidagi shakliy-uslubiy yangilanishlarni qiyosiy o‘rganish;

o‘zbek bolalar shoirlarining uslubiy individualligi, novatorligi hamda obraz yaratishdagi o‘ziga xos mahoratini belgilash;

bolalar she’riyatida shoir “men”i va bola ruhiyatining yangicha talqinlarini, lirik qahramon olamini ochib berishda poetik unsur va detallarning o‘rnini tadqiq etish orqali XXI asr o‘zbek bolalar she’riyatidagi yutuq va tendensiyalarni ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti etib Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajabning bolalar uchun yozgan she’rlari belgilandi. Bundan tashqari, o‘zbek bolalar folklori va jahon bolalar she’riyati namunalari qiyos uchun tahlilga tortildi.

Tadqiqotning predmetini zamonaviy o‘zbek bolalar shoirlarining obraz yaratish mahorati, ularning she’rlaridagi shakliy-mazmuniy izlanishlar, lirik qahramon badiiy olamini aks ettirgan badiiy tasvir vositalari, ma’rifiy, badiiy-estetik o‘ziga xosliklarni tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada struktural, formal, germenevtik, qiyosiy-tarixiy, biografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida an’anaviy obrazlar (tabiat, hayvonot olami) bilan bir qatorda texnologik taraqqiyot va global axborotlashuv natijasida shakllangan yangi turdagi intellektual obrazlar tizimi hamda ularning bolalar dunyoqarashini boyitishdagi badiiy-estetik funksiyalari jahon bolalar she’riyati kontekstida tizimlashtirilgan;

Kavsar Turdiyeva ijodida milliy folklor an’analarining namoyon bo‘lish usullari, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajab she’riyatida esa vizual-grafik shakllarning modernizatsiyalashuv jarayoni bolalik olamini anglash va estetik tafakkurni rivojlantirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan;

bolalar shoirlari ijodida qo‘llangan metafora, tashbeh va jonlantirish kabi tasvir vositalarining bolalar psixologiyasini aks ettiruvchi shakllari ijodkor individual uslubi hamda obrazli-assotsiativ tafakkur orqali namoyon bo‘lishi dalillangan;

hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida shoir “men”i va bola ruhiyati mutanosibligi, lirik qahramon olamining yangicha talqinlari hamda ruhiyat tasvirida qo‘llanilgan poetik unsurlarning bolalar adabiyotidagi psixologizm ko‘lamini kengaytirishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamlakatimiz hamda jahon olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslangani; muallif tomonidan nashr qilingan tezis va maqolalar, ilmiy jurnallardagi tadqiqotlarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani va dissertatsiya vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo‘llanilgani; bolalar adabiyoti va adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin amalga oshirilgani; dissertatsiyada ilgari surilgan amaliy taklif, tavsiya hamda xulosalarning asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mamlakatimiz hamda jahon olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslangani; muallif tomonidan nashr qilingan tezis va maqolalar, ilmiy jurnallardagi tadqiqotlarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani va dissertatsiya vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo‘llanilgani; bolalar adabiyoti va adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va

talqin amalga oshirilgani; dissertatsiyada ilgari surilgan amaliy taklif, tavsiya hamda xulosalarning asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

tahlilga tortilgan she’rlar misolda o‘zbek bolalar shoirlarining mahorati masalasiga doir ilmiy xulosalardan maktabgacha ta’lim nazariyasi, bolalar adabiyoti, she’riy asarlar poetikasi va adabiyot nazariyasi masalalari hamda o‘zbek she’riyatiga oid tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta’lim tizimidagi “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Bolalar adabiyoti”, “Pedagogika” kabi fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda yordamchi material sifatida hamda adiblar ijodi bo‘yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hozirgi davr o‘zbek bolalar she’riyatida badiiy mahorat masalasi bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida an’anaviy obrazlar (tabiat, hayvonot olami) bilan bir qatorda texnologik taraqqiyot va global axborotlashuv natijasida shakllangan yangi turdagi intellektual obrazlar tizimi hamda ularning bolalar dunyoqarashini boyitishdagi badiiy-estetik funksiyalariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 19-martdagi №04/1-1481-son ma’lumotnomasi). Natijada bolalar adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy mavzularning o‘zbek adabiyotida yoritilishi, badiiy reallikka doir obrazlarning bolalar she’riyatidagi o‘rnini ochib berishga xizmat qiluvchi ilmiy materiallar tayyorlangan;

tadqiqot natijalarining o‘rinli va samarali qo‘llanilishi Kavsar Turdiyevaning an’anaviy usuldagi, folklor an’analariga asoslangan, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajabning geometrik shakllar, rasmlar, raqamlar bilan boyitilgan, shaklan yangi she’rlari misolida bolalar she’riyatidagi o‘ziga xosliklarni qiyosiy o‘rganilgani bois loyiha mavzusiga oid nazariy va amaliy tavsiyalar bergan. Ushbu ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan IL-402104474 “Bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2026-yil 26-yanvardagi №04/1-407-son ma’lumotnomasi). Natijada platforma bolalar adabiyotiga oid nazariy bilimlar, zamonaviy bolalar she’riyatiga doir ma’lumotlar bilan boyitilgan;

tadqiqotning bolalar shoirlari ijodida qo‘llangan metafora, tashbeh va jonlantirish kabi tasvir vositalarining bolalar psixologiyasini aks ettiruvchi shakllari, ijodkor individual uslubi hamda obrazli-assotsiativ tafakkur orqali namoyon bo‘lishi, shuningdek, hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida shoir

“men”i va bola ruhiyati mutanosibligi, lirik qahramon olamining yangicha talqinlari hamda ruhiyat tasvirida qo‘llanilgan poetik unsurlarning psixologizm ko‘lamini kengaytirishiga oid ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Hamma uchun” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston teleradiokompaniyasining 2024-yil 24-dekabrdagi 06-28/846-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dasturlar mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan, ilmiy-ommaboplik xususiyati kuchaytirilgan, mazkur ko‘rsatuv va eshittirishlarga yosh tomoshabin hamda tinglovchilarning qiziqishi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, 2 ta xalqaro maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 6 faslni o‘z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 147 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiy jarayon va yangi o‘zbek bolalar she’riyati tamoyillari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Uning uning **“*Bolalar she’riyatining mavzu ko‘lami va obrazlar talqini*”** deb nomlangan birinchi faslida hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida mavzu va obrazlar tizimidagi tadrijiy o‘zgarishlar ilmiy tahlil qilingan. Bolalar she’riyatida mavzu masalasini yoritishda avvalo badiiy ijodning o‘ziga xos tabiatini inobatga olish zarur. “Badiiy asar insonning go‘zallik haqidagi tasavvuri, ruhiy tajribasi va estetik qarashlari asosida yaratiladi. Shoir she’r yozar ekan, u faqat tashqi voqeani tasvirlamaydi, balki o‘z ichki dunyosini ham shu matn ichiga singdiradi. Shu bois har qanday badiiy asarda kompozitsiya, mavzu va g‘oya o‘zaro uzviy bog‘liq holda amal qiladi”[17]. Bolalar she’riyatida g‘oya ayniqsa ehtiyotkorlik bilan shakllantirilishi lozim. Bola ongiga singdirilayotgan fikr sun’iy didaktik ohangda emas, obraz va vaziyat orqali etib borishi zarur . Masalan, do‘stlik, vatanparvarlik yoki mehr-muhabbat mavzulari faqat shior sifatida emas, konkret hayotiy vaziyatlar orqali berilganda ta’sirchan bo‘ladi.

[17] Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2018.

G‘oya mavzudan uzilib qolmasligi, aksincha, mavzuning ichki rivojidan tabiiy ravishda kelib chiqishi kerak. Mazmun qatlamida ayniqsa mavzu va g‘oya yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bolalar she’riyatida mavzu va g‘oya bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi. Mavzu hayotiy materialga tayansa, g‘oya shu materialning estetik talqini orqali yuzaga chiqadi. Mavzu g‘oyaviy yo‘nalish bilan aniqlanadi, g‘oya esa mavzu rivoji jarayonida ochiladi. Shu jihatdan bolalar she’riyatida mavzu tanlash masalasi alohida mas’uliyat talab qiladi. Tadqiqotda bolalar she’riyatida mavzu tushunchasi shunchaki hayotiy material emas, balki bolalar idrokiga mos ravishda badiiy qayta ishlangan estetik hodisa ekanligi asoslangan. Fikrimizcha, zamonaviy bolalar she’riyatida mavzu ko‘lamining kengayishi quyidagi iyerarxik bosqichlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi:



1-chizma. O‘zbek bolalar she’riyatida mavzu ko‘lamining iyerarxik o‘zgarishi

Qisqacha aytganda, “bolalar she’riyatida mavzu konkretlikdan boshlanadi va asta-sekin umumlashtirish darajasiga ko‘tariladi”[18]. Hajm jihatidan kichik bo‘lgan lirik asarlarda ham bir nechta mavzu qatlami mavjud bo‘lishi mumkin. Asosiy mavzu bilan birga unga xizmat qiluvchi kichik mavzular shakllanadi. Masalan, maktab haqidagi she’rda bilim mavzusi bilan birga do‘stlik, intizom

[18] Abdullaeva G.V. The Issue Of Lyric Heroism In Children’s Poetry // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Peer Reviewed. 2021.05. – B. 560 – 562.

yoki orzu kabi ikkilamchi yo‘nalishlar ham uchraydi. Bu kichik mavzular asosiy mazmunni boyitadi va umumiy g‘oyaning ochilishiga xizmat qiladi.

Faslda Tursunboy Adashboyev, Rustam Nazar va Anvar Obidjon kabi shoirlar ijodi misolida mavzularning semantik chuqurlashuvi dalillandi. Xususan, an’anaviy “Vatan”, “Mehnat” yoki “Tabiat” mavzulari endilikda ochiq didaktikadan voz kechib, bola ruhiyatidagi murakkab jarayonlar (tush, qo‘rquv, mantiqiy paradoks) orqali talqin qilinayotgani yoritildi. Tadqiqot davomida hozirgi bolalar she’riyatida subyektning o‘zgarganligi, ya’ni bolaning shunchaki qabul qiluvchi emas, balki ma’no hosil qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘layotgani ilmiy xulosa sifatida ilgari surildi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek bolalar she’riyatining tayyor axloqiy qoliplardan mushohada maydoniga, tashqi tasvirdan ichki kechinmaga siljish tamoyillari aniqlab berildi.

Bobning ***“Obrazlar rang-barangligi va badiiy mahorat qirralari”*** deb nomlangan ikkinchi faslida bolalar she’riyatida obraz yaratishning estetik mezonlari, ularning tasnifi va ijodkorlarning individual mahorat qirralari aniq poetik namunalar asosida tadqiq etilgan. Bolalar she’riyatida obraz masalasi alohida ilmiy yondashuvni talab qiladi. Chunki bu adabiy turda obraz nafaqat tasvir vositasi, balki ma’no ifodasining asosiy tayanchidir. XX asrda V. Jirmunskiy[19] va L. Ginzburg[20] obrazning personaj, muhit va detal bilan bog‘liq shakllarini farqlaydi. M. Baxtin obrazning dialogik tabiatini ochadi, ya’ni xarakter nutq orqali shakllanishini ta’kidlaydi. L. Vygotskiy esa badiiy timsolning hissiy ta’sir mexanizmini tahlil qiladi. Bolalar adabiyoti nazariyotchisi Peter Hant bolalar matnida obraz tashqi soddalik ortida ichki murakkablikni yashirishini ko‘rsatadi. Bola uchun tushuncha tasvir orqali anglashiladi. Shu bois bolalar she’rida obraz g‘oyani bezab turuvchi unsur emas, balki mazmunni ochuvchi markazdir. O‘zbek adabiyotshunosligida obraz hayot hodisasining badiiy umumlashmasi sifatida talqin qilinadi. Biroq bolalar she’riyatida bu umumlashma soddalashtirilgan shaklda emas, idrokka yaqin timsol orqali amalga oshadi. Bola murakkab ta’rifni emas, jonli tasvirni qabul qiladi. Shuning uchun bolalar she’rida obrazning aniqligi, ravshanligi va ta’sirchanligi asosiy badiiy talab hisoblanadi. Tadqiqotda bolalar she’riyatidagi badiiy obraz shunchaki g‘oyani bezovchi unsur emas, balki mazmunni ochuvchi asosiy estetik markaz ekanligi asoslanib, uning rivojlanish bosqichlarini ifodalovchi uch darajali modeli ishlab chiqildi:

[19] Жирмунский В. М. Введение в литературоведение: Курс лекций / Под ред. З. И. Плавскина, В. В. Жирмунской. – СПб.: Изд- во С.-Петербург. ун-та, 1996. – С. 440.
[20] Гинзбург Л. Я. О лирике. 2 изд., доп. – Л.: Сов. писатель, 1974. – С. 408.



2-chizma. Bolalar she'riyatidagi obrazning uch bosqichli modeli

Faslda obraz qurilishining nutq va ohang bilan bog‘liqligi Anvar Obidjonning “Bezori” she’ri misolida tahlil qilinib, bezori qarg‘aning “Vey, Laylak, yeganmisan hech kaltak?” kabi keskin nutqi va qisqa satrli ritmi personaj xarakterini ochuvchi asosiy vosita ekanligi ilmiy dalillandi. Bu tahlil shuni ko‘rsatadiki, bolalar she’riyatida personaj obrazi soddalashtirilgan emas, balki dramatik harakat asosida qurilmoqda. Qarg‘a qush emas, ijtimoiy xulq egasiga aylangan. Obraz–personaj mustaqil kuch sifatida maydonga chiqadi. Ammo obraz qurilishi faqat personaj bilan cheklanmaydi. Muhit ham faol rol o‘ynaydi. Dilshod Rajabning “Varraklar quvonchi”[21] she’riga murojaat qilamiz:

O‘tib ketdi badqovoq
Qishning achchiq ayozi,
Tabiat kiymoqda shod
Bayramona libosin.

Bu yerda manzara obrazi ustuvor. Qish va bahor tasviri mavjud. Biroq manzara passiv fon emas. U jonlantiriladi va kayfiyatga aylanadi. Keyingi bosqichda obraz ramziy darajaga ko‘tariladi. Odil Abdurahmonning “Oy allasi”[22] she’ridagi satrlar:

Oy ona emish,
Bolasi – yulduz.
Alla aytarmish:
Oppog‘im qunduz
Ko‘zim nurini
Senga tutdim-o,
Otangday bo‘l, deb,
Yo‘ling kutdim-o.
Otam qayda, deb
So‘rama, bolam,
Otang – Quyoshdan
Bahramand olam.

She’rda kosmik jismlar oilaviy timsolga aylantirilgan. Ramziy obrazning asosiy belgisi – ko‘chma ma’no qatlamining ustuvorligidir. Oy faqat osmon

[21] Дилшод Р. Хайрли тонг. – Тошкент: Muharrir, 2019. – Б. 73.
[22] Абдурахмон О. Беланчак. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 32.

jismini emas, ona mehrini ifodalaydi. Yulduz farzand, Quyosh ota sifatida talqin qilinadi. Peter Hant ta'kidlagan ikki qatlamlilik shu yerda namoyon bo'ladi. Bola osmonni ko'radi, lekin ayni paytda oila timsolini anglaydi. Shu tarzda uch ko'rinish aniqlanadi: personaj obrazi, muhit obrazi va ramziy timsol. Ularning o'zaro almashinuvi bolalar she'riyatidagi rang-baranglikni ta'minlaydi. Shoirlarning badiiy mahorati obrazning ko'p qatlamli tabiatida namoyon bo'lishi Kavsar Turdiyevaning "Muloyim ko'chasi" she'ridagi "*Sehrgar tushib pastga, nimadir dedi asta*" satrlari tahlili orqali ko'rsatildi; bunda sehrli hodisa (tashqi qatlam) va nutq madaniyati lug'ati (ichki qatlam) o'zaro uyg'unlashib, muloyimlik tushunchasi axloqiy mezon darajasiga ko'tarilgani asoslandi. Abdurahmon Akbarning "Qish sabog'i" she'rida "to'rtta cho'ntak" detalining markazlashuvi orqali bolaning mas'uliyatsizligi va beparvoligi kulgi hamda ogohlantirish uyg'unligida ko'rsatilgani ijodkorning konstruktiv mahorati sifatida baholandi. Dilshod Rajabning "So'nggi yaproq" she'rida daraxtning yaproqni "chaqa" sifatida asrab-avaylashi, yaproqning esa umid va so'nggi tayanch ramziga aylanishi detalning ramziy darajaga ko'tarilishini isbotlaydi. Kavsar Turdiyevaning "Sodiq do'st" she'rida ayiq o'yinchog'ini almashtirmaslik sababini "*Ayiq do'stim. Do'stlarni almashtirib bo'lmaydi*" deya izohlash orqali predmetning ma'naviy darajaga ko'tarilishi va sadoqat tushunchasining shakllanishi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatida timsollarning bir yo'nalishli ibrat vazifasidan voz kechib, murakkab ichki mushohadalar maydoniga aylanayotgani, badiiy mahorat esa kichik bir detalda (yaproq, ayiq, cho'ntak) katta ma'no yukini jamlay olish qobiliyati bilan belgilanishi ilmiy xulosa sifatida ilgari surildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Bolalar she'riyatida shakliy-uslubiy yangilanish va obraz yaratish"** deb nomlanib, uning **"*Bolalar she'riyatida shakl originalligi va poetik obraz takomili*"** deya atalgan birinchi faslida hozirgi o'zbek bolalar she'riyatidagi shakliy izlanishlar va ularning poetik obraz takomiliga ta'siri keng qamrovli tahlil etiladi. Professor Q.Yo'ldoshev istiqlol davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida shunday yozadi: "Bugungi adabiyot odamlarga yo'l ko'rsatishni gardaniga olmaydi, o'quvchiga aql o'rgatmaydi, muallimlik da'vosini qilmaydi. U tasvirning ingichkaligi, ifodalarning kutilmaganligi bilan o'quvchida munosabat uyg'otadi. Shuni aytish kerakki, istiqlol adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinda, matn zamirida"[23]. Darhaqiqat, bolalarni adabiyotga, so'z san'atiga mehr qo'yishi uchun nasihatomuz jumlalar emas, o'ynoqi va "kosa tagida nim kosa" tarzidagi she'riyatning o'rni beqiyos. Bugungi kunda umumta'lim maktablari "O'qish va yozish savodxonligi" va "Tarbiya" singari darsliklarga kiritilgan o'nlab bolalar she'riyati namunalari shakliy va mazmuniy o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan go'zal she'rlardir va aynan shu she'rlar orqali kichkintoylar bolalar adabiyotini anglashni o'rganmoqdalar. Shu darslikda shoir Abdurahmon

[23] Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеъриятининг етакчи хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2019.

Akbarning “Metroda” she’ri keltiriladi. Ushbu she’r ham o‘zining uslubiy ravonligi va poetik imkoniyatlardan maksimal foydalanilgani bilan diqqatga sazovordir. Ushbu she’rda oddiy hayotiy holat orqali jamiyatda hurmat va odob-axloq qadriyatlari tarannum etiladi. Muallif voqeani yumor va istehzoli ohangda ifodalagan, ammo unda chuqur ma’nolar mujassam. Keling, she’rni poetik jihatdan tahlil qilib, uning original jihatlarini ko‘rib chiqaylik. She’r kundalik hayotimizda ko‘p uchraydigan vaziyat – transportda joy bo‘shatish madaniyatini, o‘zaro hurmat va ehtiromni tasvirlaydi. G‘oya shundaki, odob-axloq, kattalarga hurmat ko‘rsatish va kichiklar bilan do‘stona muomala – jamiyatimizning muhim qadriyatlari. Muallif ushbu vaziyat orqali kishilar o‘rtasidagi hamjihatlik, bir-biriga mehr ko‘rsatish kabi fazilatlarni madh etadi. She’rda poetik ifoda va tasviriy vositalar sodda, ravon va jonli usulda qo‘llangan. She’rdagi ayrim badiiy vositalarga e’tibor qaratamiz:

Dialog: She’rda keltirilgan dialoglar (masalan, “O‘tiring, aka”, “Qo‘yavering”) jonli va haqiqiy bo‘lib, o‘quvchini voqeaning ichiga tortadi. Dialoglar bilan boyitilgan she’r o‘z o‘quvchisiga yaqin va o‘quvchining ko‘z oldida o‘sha holatni jonlantiradi.

Simvolizm: She’rda “bola”, “otaxon”, “kelin” obrazlari jamiyatning turli qatlamlarini aks ettiradi. Bu obrazlar shaxsiy emas, balki ramziydir; ular orqali muallif yosh va qari avlod o‘rtasidagi hurmat va munosabatni ko‘rsatgan.

Ironiya: She’rning yakunida bir oz istehzoli ohang seziladi. Hammaning hurmat ila joy bo‘shatishi va nihoyat oxirida joyning o‘zi “bo‘sh” qolishi holati o‘quvchida kulgi uyg‘otadi. Bu istehzoli ohang orqali muallif barchaning bir-biriga ehtiromi va kamsuqumligi holatini yengil kinoya bilan yetkazadi.

Tadqiqotda bolalar adabiyotining o‘ziga xos tarbiya vositasi sifatidagi maqomi saqlangan holda, uning estetik-badiiy imkoniyatlari yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rish mumkin. Xususan, so‘nggi chorak asr o‘zbek bolalar she’riyatida shakl va grafik ifoda imkoniyatlari shunchaki tashqi bezak emas, balki mazmunni ochuvchi faol badiiy mexanizmga aylanadi. Abdurahmon Akbarning raqamli she’rlarida raqam va harf o‘rtasidagi grafik o‘xshashlikning qo‘llanilishi bolani passiv kitobxondan faol mushohada yurituvchi shaxsga aylantiradi. Shoirning

Vaqt topib yozib yubor
Yana 2 enlik xat,
Sog‘inibman chamasi,
3 yapti ko‘zim ham

kabi misralarida raqamning bevosita matnga kirib kelishi bolalar tafakkurini mantiqiy o‘yinga jalb etadi. Shuningdek, “*Uchqunjonning toychog‘i, Shamoldan ham 3qur*” kabi satrlarda raqamning harakat va tezlikni vizual tarzda ifodalashi poetik obrazning vizuallashuviga xizmat qiladi. Raqam so‘zning ichiga singib, harakat va yorqinlik ma’nosini kuchaytiradi. Bola she’rni o‘qir ekan, grafik shakl va ma’no birlashadi. Natijada obraz yanada jonlanadi. Biroq shuni ham alohida qayd etish zarurki, poetik originallikka intilish yo‘lida raqamlashtirish usulini haddan tashqari keng qo‘llash har doim

ham kutilgan natijani bermaydi. Shakliy yangilik o‘z-o‘zicha estetik qiymat yaratmaydi. Agar u mazmunning ichki mantig‘idan kelib chiqmasa, aksincha, mazmunga putur yetkazishi mumkin.

Faslda Dilshod Rajabning vatanparvarlik mavzusidagi she’rlarida an’anaviy ulug‘vorlikdan tasviriy samimiylikka o‘tilganini kuzatish mumkin. Shoirning misralarida Vatan timsoli bolalar dunyoqarashiga yaqin obrazlar orqali yangicha talqin topadi. Kavsar Turdiyeva she’riyatida esa tabiatning insoniylashuvi va original tashbehlarning qo‘llanilishi alohida o‘rin tutadi. Uning

Baland, mag‘rur bu tog‘lar
Go‘yo uzun karvondir.
Quyoshjonni tepaga
Kuzatuvchi narvondir.

kabi bandlarida tog‘ning “narvon”ga o‘xshatilishi orqali kutilmagan poetik obraz takomili yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, she’riyatda har bir so‘z tanlovi asarning umumiy ta’sirini belgilovchi omil hisoblanadi. Har bir so‘z nafaqat she’rning ritmik va semantik tuzilishini shakllantiradi, balki uning badiiy qiymatini ham oshiradi. Shoirning so‘z tanlashdagi izchilligi va puxtaligi esa she’rning o‘quvchi ongiga yetkazadigan hissiy ta’sirini kuchaytiradi, uni yanada boyroq va chuqurroq qiladi. She’riyat bolalarga tilni o‘rganish jarayonida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi va ularni yangi so‘zlar bilan tanishtirishda o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Shoirning o‘z ijodida so‘z tanlashga bo‘lgan puxta yondashuvi, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan she’rlarda o‘z aksini topadi. So‘zlarning ma’nosini aniq yetkazish va hissiy ta’sirini oshirish uchun shoir sinonimlarning keng spektrini ko‘rib chiqadi va ulardan eng mosini topishga intiladi. Bu jarayon nafaqat shoir uchun ijodiy qiyinchilik, balki bolalar uchun ma’naviy boyish imkoniyatini ham taqdim etadi. Ammo shakl va mazmun uyg‘unligi saqlangan taqdirdagina raqamli she’rlar poetik ta’sir kuchini oshiradi. Aks holda, shakliy o‘yin mazmunni siqib chiqarishi mumkin. Bolalar she’riyatida esa badiiy mukammallik, avvalo, estetik ishonarlilik va ichki izchillik bilan belgilanadi.

She’riyat bolalarga yangi so‘zlar bilan tanishish va ularni chuqur anglash imkonini beradi. Shoirning so‘z tanlashdagi ijodiy yondashuvi va she’rlarning ritmik-qofiyaviy tuzilishi bola til o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, she’riyat bolalarning nafaqat til boyligini, balki estetik didini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar o‘zlari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona-yurtga mehr-oqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar.

Bobning ***“Uslubiy individuallik va obraz yaratish mahorati”*** deb nomlangan ikkinchi faslida har bir ijodkorning bolalar dunyoqarashiga yaqin va tushunarli uslub yaratishdagi o‘ziga xos yondashuvini ko‘rish mumkin. Obraz yaratishda fantastik va real elementlarning uyg‘unligiga e’tibor beriladi. Masalan, fantastik qahramonlar ko‘p uchraydi va ular bolalarga qiziqarli, ular tasavvur qiladigan yoki o‘ziga yaqin his qiladigan obrazlarda tasvirlanadi. Ayniqsa, ertaklarda yoki sehrli hikoyalarda bunday obrazlar orqali ijodkor

bolalarni o‘z yaratgan dunyosiga olib kiradi. Shuningdek, asardagi qahramonlar ko‘pincha sodda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarakterga ega bo‘lib, ular o‘z his-tuyg‘ularini yashirmasdan ifodalaydi. Bu bolalarga qahramonlarning xarakterini tushunishda va ularning harakatlari bilan o‘zaro bog‘lanishda yordam beradi. Ijodiy-uslubiy individuallik bolalar adabiyotida asarning yodda qolishi va o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishida muhimdir. Bu yondashuv o‘quvchiga qiziqarli va mazmunli hikoyalar etkazish orqali yosh avlodning axloqiy va estetik rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Tadqiqotda ijodiy-uslubiy individuallik badiiy tasvirning soddaligi, samimiyligi va bolalar psixologiyasiga moslashgan timsollar tizimi orqali belgilanadi. Faslda Kavsar Turdiyeva ijodidagi poetik mahorat va pedagogik ahamiyat uyg‘unligi uning

Bizning mahalla va ko‘y,
Har bir xonadon va uy.
Mehrlarga to‘lmoqda
Shundan obod bo‘lmoqda[24]

kabi misralari misolida yoritildi. Shoiraning “Mahalla” obrazi orqali Vatanni “kichik o‘lka” sifatida talqin qilishi bolalar ruhiyatiga yaqin samimiy uslub ekanligi dalillandi. Shuningdek, uning

Alishaylik, og‘ayni,
Senga beray qayiqni.
... Ayiq do‘stim. Do‘stlarni
Almashtirib bo‘lmaydi

kabi satrlari tahlil qilinib, o‘yinchoq obrazi orqali sadoqat kabi murakkab ma’naviy qadriyatning shakllanishi shoiraning uslubiy yutug‘i sifatida ko‘rsatildi. Abdurahmon Akbar she’riyatidagi individuallik mantiqiy va analitik fikrlashga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Shoirning

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
Nimagadir juda ham kamgap.
... Va shivirlar: – Hali kelmabdi
Suvlar suvga o‘xshaydigan kun[25].

misralari orqali bolaning falsafiy mushohada darajasiga ko‘tarilgan lirik qahramon qiyofasi yaratilganini kuzatish mumkin. Uning “Uch o‘g‘il va chaqaloq” kabi “qo‘shaloq she’r”larida “*Oyim kelsa eshikdan, / Ukam kular beshikdan*” kabi ichki matnlarning hosil bo‘lishi so‘z ustida ishlash mahoratining yangi bosqichi sifatida baholanadi. Dilshod Rajab ijodidagi uslubiy yangilanishlar esa milliy ruh va zamonaviy grafik ifodaning sintezi sifatida tadqiq etildi. Shoirning

...Niyatlari pok - asl
Ichida yo‘q kir - qorasi,
Uning jondan suygani
Dalasi-yu bolasi[26].

[24] Turdiyeva K. Piyodalar qo‘shig'i. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 34.
[25] Абдурахмон А. Осмоннинг боласи. – Тошкент: Ғафур Ғулом. – Б. 18.
[26] Rajab D. Baxshi bola – yaxshi bola. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – B. 14.

kabi satrlarida o‘zbekona bag‘rikenglik obrazini yaratishdagi o‘ziga xoslik yoritildi. Uning grafik she’riyat namunalari, jumladan, “Minnatdorchilik” she’rida ko‘tarma kranning so‘zlar yordamida vertikal chizilishi vizual va poetik obraz uyg‘unligining original uslubiy namunasi sifatida diqqatga sazovordir:

Minnatdorchilik

Yashash qanday zavqlidir,
Osmono‘par uylarda.
Qurib bergan ularni,
Bizga ishchi kranlar.
Qo‘lim yetsa gul taqib,
Qo‘yardim, – der Sojida.
Huv, KO‘TARMA KRANning
Ko‘kka yetgan boshiga.

Huv, K R A N N
O‘ I
T N
A G
R
M
KO‘KKA YETGAN
BOSHIGA

Tadqiqot natijasida zamonaviy o‘zbek bolalar shoirlari o‘zlarining individual uslublari orqali bolalarni nafaqat estetik zavq olishga, balki mantiqiy, tahliliy va falsafiy fikrlashga undovchi subyekt darajasiga ko‘targanliklari haqida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Hozirgi bolalar she’riyatida qahramon yaratish mahorati”** deb nomlanib, uning fasllarida lirik qahramon ruhiyatini tasvirlashdagi zamonaviy tamoyillar va poetik unsurlarning o‘rni tahlil qilinadi. ***“Shoir ‘men’i va bola ruhiyatining yangicha talqini”*** deb nomlangan birinchi faslda yangi davr bolalar she’riyati qahramonining didaktik qoliplardan xoli bo‘lib, mustaqil mushohada yurituvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Hozirgi zamon bolalar she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biri – ularning bolalar hayotiga yaqin va oson anglashiladigan tilda yozilganligidir. Misol uchun, Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajab kabi shoirlarning ijodida bola ruhiyatining nozik jihatlarini aks ettirishga katta e’tibor qaratiladi. Ularning she’rlarida bolalarning hayoti, ularning kundalik muammolari, quvonchlari va orzulari samimiy, ba’zan yumoristik tarzda tasvirlanadi. Bu esa o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi va ularning she’rga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Bu borada o‘zbek bolalar she’riyatining yorqin vakili Kavsar Turdiyeva ijodi alohida o‘ringa ega. Shoira o‘z she’rlarida bola ruhiyatining yangicha talqinlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kavsar Turdiyevaning “Sodiq do‘st” she’rida bola ruhiyatining yangi va o‘ziga xos tahlili berilgan bo‘lib, unda

bolalarning hissiy dunyosi va do‘stlik tushunchasiga bo‘lgan munosabatlari sodda, ammo juda ta’sirchan ifodalangan:

Alishaylik, og‘ayni,
Senga beray qayiqni.
Sen-chi, menga berasan,
Huv, o‘yinchoq ayiqni.
Og‘aynim-chi, norozi,
So‘zlaydi-yu kulmaydi:
Ayiq do‘stim. Do‘stlarni
Almashtirib bo‘lmaydi[27].

Bola uchun o‘yinchoqlar oddiy narsalardan ko‘ra, ularga bog‘langan hissiyotlar va ramziy ahamiyatga ega. O‘yinchoq ayiqni “do‘st” deb atashi bolaning o‘yinchoqlar orqali do‘stlikni his qilishini va bu tushunchaga katta e’tibor qaratishini ko‘rsatadi. Bu o‘yinchoqni almashtirish taklifi orqali bolaning do‘stlik haqidagi chuqurroq va samimiy tushunchasi yuzaga chiqadi. She’rda “Do‘stlarni almashtirib bo‘lmaydi” degan qat’iy fikr bolaning do‘stlikning ahamiyatini anglashini ochib beradi va bolaning sezgirligi hamda ma’naviy qadriyatlarini yaqqol aks ettiradi. Bola ruhiyatidagi bu murakkab jarayon oddiy harakatlar va sodda tilda tasvirlangan bo‘lib, o‘yin jarayonida bolaning individual qadriyatlari shakllanishi va rivojlanishi ta’kidlanadi. Shu tarzda she’r bolalar dunyosidagi oddiylik orqali ulkan psixologik haqiqatlarni ifoda etadi va do‘stlikni sadoqat bilan tenglashtiruvchi falsafiy xulosaga olib keladi. Dilshod Rajab ijodida bola ruhiyati yangilikka ochiq, falsafiy fikrlashga moyil talqin etiladi. Shu bois ham shoir she’rlarida jumboqli va ramziy tasvirlar ko‘p uchraydi. Xususan, shoirning “Toshbaqaning bulbulga degani” she’ri ana shunday tashbehlarga boyligi bilan e’tiborga molik:

Qo‘nib olib butoqqa,
Ko‘rardim sayrashingni,
Tushsang edi botqoqqa.
Agar rostdan bo‘lsang zo‘r,
Botqoqda bir sayrab ko‘r.

Dilshod Rajabning “Toshbaqaning bulbulga degani” she’rida bola ruhiyati o‘ziga xos teranlik bilan talqin etilgan bo‘lib, asarda toshbaqa va bulbul obrazlari orqali inson xulq-atvori, hayotdagi sinovlarga munosabat va haqiqiy kuchning namoyon bo‘lishi ramziy usulda yoritiladi. Bola ruhiyatini anglashda shoir bolalarga xos qiziqish, tanqidiy fikrlash, va ichki dunyodagi sinovlarga nisbatan o‘ziga xos nigohni aks ettiradi. She’rda toshbaqaning bulbulga murojaati orqali bolaning hayotdagi hodisalarga o‘ziga xos mantiqiy va o‘ychan qarashi o‘z ifodasini topadi. She’rda toshbaqa bulbulga murojaat qilib, uning sayrashdagi go‘zalligi va kuchini og‘irroq sharoitda sinab ko‘rishni taklif etadi. Toshbaqaning: “Ko‘rardim sayrashingni, tushsang edi botqoqqa” degan so‘zlari orqali bola ruhiyati odatiy go‘zallik yoki muvaffaqiyatni cheklovsiz qabul qilishdan ko‘ra, ularning ichki mustahkamligini sinab ko‘rishga moyil ekanligi ko‘rsatiladi.

[27] Turdiyeva K. Dunyoni saqlar bolalar. – Toshkent: Bekinmachoq-plyus, 2012. – B. 8.

